

Bakalavriatura yo'nalishlari

BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI:

№	Shifr raqami	YO'NALISHLAR
1	60810500	Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti
2	60710600	Elektr energiyasi (suv xo'jaligida)
3	60711000	Muqobil energiya manbalari(qayta tiklanuvchi energiya)
4	60711400	Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (suv xo'jaligida)
5	60610200	Axborot tizimlari va texnologiyalari (suv xo'jaligida)
6	60722900	Texnika va texnologiyalarning texnik ekspertizasi va marketingi (turlari bo'yicha)
7	60711500	Mexatronika va robototexnika

№ Shifr raqami YO'NALISHLAR

1	60810500	<p>Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari ilmiy-tadqiqot, loyiha-konstruktorlik, ekspluatatsion va texnik servis, texnologik-ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv tizimida xususan, ushbu ta'lim yo'nalishlarini bitiruvchilari elektroenergetika tizimlari, elektr ta'minoti tarmoqlari, ichki irrigatsiya-melioratsiya tizimlari, suv ta'minoti tarmoqlarining energetik tizimlari, noan'anaviy energiya manbalari va tizimlari, elektrotexnologik uskunalari, elektrotexnik qurilmalarni ekspluatatsiyalash jarayonlari, ilmiy tadqiqot jarayonlari, elektr qurilmalarni ta'mirlash, sozlash va texnik xizmat ko'rsatish tizimlari muxandis elektrik lavozimida faoliyat yuritishlari mumkin.</p>
2	60710600	<p>Elektr energetikasi (suv xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar ishlab chiqarishda suv xo'jaligi tizimlari, gidroelektrostansiyalar, suv ta'minoti nasos stansiyalari, gidrotexnika inshootlari va ularni qurilishi, loyiha-konstruktorlik, elektr ta'minot tizimlaridagi texnik vositalarning ekspluatatsiyasi, ta'mirlash, montaji, sozlash va servis xizmat ko'rsatish, elektr energiyasini sotish, sarfini me'yorlash, energiya nazorati soxalarida, ta'lim jarayonida mos kasb-hunar kollejaridagi faoliyat yuritishlari mumkin.</p>
3	60711400	<p>Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (suv xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar suv xo'jaligi ishlab chiqarishida yuqori unumdorlikka ega texnologik jarayonlar, apparatlar va jihozlar va ularni nazorat qilish, rostlash va boshqarish tizimlari, ularni sozlash, ekspluatatsiya qilish usullari va vositalari, shuningdek nazorat, rostlash va boshqarish tizimlarining loyiha hujjatlari, ta'lim jarayonida mos kasb-hunar kollejaridagi o'quv-tarbiya jarayonida faoliyat olib borishlari mumkin.</p>
4	60722900	<p>Texnika va texnologiyalarning texnik ekspertizasi va marketingi (Elektrotexnik va elektron texnika va texnologiyalar) ta'lim yo'nalishi - fan va texnika sohasidagi yo'nalish bo'lib, u qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoqlarida hamda sanoatning boshqa tarmoqlarida joriy etilayotgan chet el zamonaviy elektrotexnik va elektron texnika va texnologiyalarni sifatli ekspertizadan o'tkazish hamda mahalliy ishlab chiqarish jarayonlari talablariga mos kelishligi haqida ilmiy asoslangan xulosalar tayyorlash, elektrotexnik va elektron texnika jihozlari, asbob va uskunalari ishlab chiqarishda ishlatiladigan xom ashyo va tayyor mahsulotlarni sifat va son jihatdan baholash, texnik jihozlar ishlab chiqarishda ularning sarf - xarajatlarini sarflanadigan material hamda energetik jihatdan baholash, jihoz yoki qurilmaga sarflanadigan xom ashyo birligini aniqlash, mahsulotlar ishlab chiqarishda texnologik xatoliklarni aniqlash, eksport uchun ishlab chiqarilayotgan mahalliy elektrotexnik va elektron qurilmalar texnik ko'rsatgichlarini xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash, elektrotexnik va elektron qurilmalar, jihozlar va asboblarni ishlab chiqarish sanoati bo'yicha marketing tadqiqotlar o'tkazish va tovarlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda o'rganish uchun yo'naltirilgan inson faoliyati vositalari, usullari, yo'sinlari hamda yo'llari kabi majmuilarini o'z ichiga oladi.</p>

- 5 5430200 “Qishloq xo‘jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchilari ilmiy-tadqiqot, loyiha-konstruktorlik, ekspluatatsion va texnik servis, texnologik-ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv tizimida xususan, ushbu ta‘lim yo‘nalishlarini bitiruvchilari elektroenergetika tizimlari, elektr ta‘minoti tarmoqlari, ichki irrigatsiya-melioratsiya tizimlari, suv ta‘minoti tarmoqlarining energetik tizimlari, noan‘anaviy energiya manbalari va tizimlari, elektrotexnologik uskunalar, elektrotexnik qurilmalarni ekspluatatsiyalash jarayonlari, elektr qurilmalarni ta‘mirlash, sozlash va texnik xizmat ko‘rsatish tizimlari muxandis elektrik lavozimida faoliyat yuritishlari mumkin.
- Mexatronika va robototexnika ta‘lim yo‘nalishi - “Muhandislik ishi” ta‘lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u zamonaviy mikroelektronika, elektrotexnika, programma ta‘minoti va kompyuter texnikalarini aniq mexanika fanlari bilan birlashtirilgan fan sohasidan iborat bo‘lib u sifat jihatdan yangi injenerlik modullarini, intellektual boshqariladigan va tegishli murakkab funksiyalarni bajara oladigan mashinalar sistemasini ishlab chiqish va loyihalash kabi vazifalarni ta‘minlaydi. Robototexnika esa o‘z navbatida fan va texnikaning bir bo‘limi bo‘lib, u murakkab texnologik jarayonlar va operatsiyalarni kompyuterlashtirish uchun yo‘naltirilgan
- 6 60711500 robotlar va robotexnik sistemalarni loyihalash, yaratish va ishlab chiqishga yo‘naltirilgan kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi. Ular sanoatning barcha tarmoqlari hamda qishloq va suv xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlarida joriy etilayotgan zamonaviy mexatron va robototexnik kompyuterlashtirilgan sistemalarni joriy etish, mikro va makro o‘lchamlarga ega bo‘lgan turli ish jarayonlarini bajaruvchi mashinalar hamda agregatlarni boshqarish, ishlab chiqarish korxonalarida og‘ir va xavfli ish jarayonlarini boshqarish uchun mexatron va robototexnik sistemalarni loyihalash, meva -sabzovatlar hosilini yig‘ishtirish, qayta ishlash sanoatida sortlarga ajratish va qadoqlash jarayonlarida barcha vazifalarni bajarish hamda o‘rganish uchun yo‘naltirilgan kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.
- Muqobil energiya manbalari (qayta tiklanuvchi energiya) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi energetik qurilmalardan foydalanib elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish, o‘zgartirish, uzatish va iste‘mol qilish ob‘ektlarida, elektr va issiqlik ta‘minoti tizimlarida ishlatiladigan jihozlar va ularning konstruksiyalarini montaj qilish va sozlash korxonalarida faoliyat olib borish, qayta tiklanuvchan energiya manbalari asosidagi elektr stansiyalarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini sotish, sarfini me‘yorlash, energiya nazorati soxalarida, professional ta‘lim muassasalarida qayta tiklanuvchan energiya manbalariga oid fanlardan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, ilmiy tadqiqot institutlarida hamda qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi energetik qurilmalar, stansiyalarni loyihalash korxonalarida keng qamrovli masalalarni yechish bo‘yicha faoliyat yuritishlari mumkin.
- 7 60711000 Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) bo‘yicha bitiruvchilar axborot jarayonlari, texnologiyalari, tizimlari va tarmoqlari, ularni instrumental (dasturiy ta‘minot, texnik, tashkiliy) qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarish va sohalaridagi axborot texnologiyalari va tizimlari operatsiyalari tijorat, boshqaruv, bank tizimlari axborot tizimi xavfsizligi, jarayonlarni nazorat qilish, mexanika, energetika, metallurgiya, ilmiy-tadqiqot institutlari va IT-markazlarda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish; kompyuter texnikalarini joylashtirish; zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, shuningdek, professional ta‘lim muassasalarida ta‘limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyat yuritishlari mumkin.
- 8 60610200